



UO'K: 792.02:37.018

TEATR SAN'ATNING YOSHLAR RUHIY-AXLOQIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

ВЛИЯНИЕ ТЕАТРАЛЬНОГО ИСКУССТВА НА ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННОЕ РАЗВИТИЕ МОЛОДЕЖИ

THE INFLUENCE OF THEATRICAL ART ON THE SPIRITUAL AND MORAL DEVELOPMENT OF YOUTH

Dehqonov Rovshan Davlataliyevich 
Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada yurtimizda yaratilgan bu betakror an'ana va marosimlar, milliy qadriyatlar va urf-odatlarini o'rganish hamma davrlarda ham olimlar oldiga qator muhim vazifalarni bajarish zaruratini qo'yganligini ta'kidlanadi. Jamiyatning ma'naviy rivojlanish jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning sinergetikasi, ularning bir-birining rivojiga ta'siri, jamiyatdagi o'mi va roli, muayyan vazifalarini belgilashda muhim amaliy epistemologik jihatdan muhim ahamiyat ega. Jamiyatning teatr san'ati muayyan tarixiy sharoitda yaratilgan va idrok etilayotgan estetik qadriyatlar yig'indisidan iborat bo'lib, millat istiqomat qiladigan muhit tabiati, ijtimoiy-siyosiy tuzumdagi tizimlar faoliyatiga munosabat, yaratilayotgan barcha moddiy va ma'naviy qadriyatlarining estetik tomonlari, odamlar hayoti va faoliyatidagi adabiyot va san'at durdonalari kiradi.

Аннотация

В этой статье подчеркивается, что изучение этих уникальных традиций и обрядов, национальных ценностей и обычаев, созданных в нашей стране, всегда ставило перед учеными ряд важных задач. Синергетика национальных и общечеловеческих ценностей в процессе духовного развития общества, их влияние на развитие друг друга, их место и роль в обществе, определение конкретных задач имеют важное практическое эпистемологическое значение. Театральное искусство общества состоит из совокупности эстетических ценностей, созданных и воспринимаемых в определенных исторических условиях, включая природу среды, в которой проживает нация, отношение к деятельности систем в социально-политическом строе, эстетические аспекты всех создаваемых материальных и духовных ценностей, шедевры литературы и искусства в жизни и деятельности людей.

Abstract

This article emphasizes that the study of these unique traditions and ceremonies, national values and customs created in our country has always placed a number of important tasks before scientists. In the process of spiritual development of society, the synergy of national and universal values, their influence on the development of each other, their place and role in society, and the definition of specific tasks are of great practical epistemological importance. The theatrical art of society consists of a set of aesthetic values created and perceived in certain historical conditions, including the nature of the environment in which the nation lives, the attitude to the activities of the systems of the socio-political system, the aesthetic aspects of all material and spiritual values created, the pearls of literature and art in the life and activities of people.

Kalit so'zlar: axloq, axloqiy qadriyatlar, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, ma'naviy qadriyatlar, urf-odatlar, ijtimoiy-siyosiy, estetik tafakkur, estetik madaniyat, jamiyat.

Ключевые слова: мораль, нравственные ценности, национальные ценности, общечеловеческие ценности, духовные ценности, обычаи, общественно-политическое, эстетическое мышление, эстетическая культура, общество.

Key words: morality, moral values, national values, universal human values, spiritual values, customs, socio-political, aesthetic thinking, aesthetic culture, society.

KIRISH

Teatr san'ati insonning ichki dunyosi, ma'naviy-axloqiy qarashlari va ijtimoiy xulq-atvorini shakllantirishda muhim tarbiyaviy kuchga ega bo'lgan san'at turi hisoblanadi. Teatr orqali yoshlar nafaqat estetik zavq oladi, balki ijtimoiy qadriyatlar, axloqiy mezonlar va hayotiy tamoyillarni chuqurroq anglab boradi.

“Mamlakatimiz aholisining deyarli yarmini tashkil etadigan yoshlar bilan ishlash masalasi, ularni faolligini o'stirish, tadbirkorlikka jalb etish, yoshlar bandligini ta'minlashga qaratilgan “Yoshlar –

ILMIY AXBOROT

kelajagimiz"[1.15.] Davlat dasturi" orqali teatrning sintetik tabiati, adabiy asar, sahna o'yini va spektaklning badiiy bezaklar (dekoratsiyalar, rekvizitlar, dekoratsiyalar) va spektakllar, dasturda belgilab qo'yilgan. Teatr san'ati bolaning shaxsiyatini rivojlantirishga, nutq, ovoz, ritm hissi, harakatlarning plastikasini rivojlantirish jarayonini optimallashtirishga imkon beradi.

"Yoshlar kelajagimiz" davlat dasturning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda quyidagi takliflarni bildirib o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. Birinchi navbatda yoshlar manfaatini ta'minlashni kuchaytirishga qaratilgan huquqiy bazani yanada mustahkamlash;

2. Davlatimizda ta'lim-tarbiya tizimiga mas'ul bo'lgan idoralarning mas'uliyatini oshirish;

3. Uzlaksiz ta'limda olib borayotgan isloxlarning mazmun va shakl jihatdan sifatini oshirish;

4. Yoshlar o'z mehnati va faoliyatini amaliy va nazariy hayot bilan bog'liq ravishda olib borishlarida ularga dasturulamal, yo'riqnomalar ishlab chiqish va taqdim etish.

Shuni ta'kidlash kerakki, jamiyat taraqqiyoti birinchi navbatda fuqarolarning bilimi va ma'rifatiga bevosita bog'liq. Jamiyatni yuksaltirish odamlarni savodini, bilimni oshirish bilan amalga oshiriladi. "Jamiyat a'zolari yuksalmasa, jamiyat ham yuksalmaydi. Jamiyat a'zolari yuksalishi uchun ularning aqlari yuksalishi lozim. Aql esa faqat kitob mutolaasi bilangina yuksaladi"[2.151.]. Yangilanayotgan O'zbekistonda an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan «Nihol» va Zulfiya mukofotlari tanlovlari, "Yangi avlod", "Kelajak ovozi" ko'rik-tanlovlari, yoshlar o'rtasidagi olimpiada va universiadalar bu borada jiddiy ishlar olib borilayotganini ko'rsatadi. Xususan, yoshlarimizning har sohada erishayotgan ulkan yutuqlari O'zbekistonimiz nomini dunyoda jaranglashiga olib keladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Teatr san'ati yoshlarning ruhiy-axloqiy rivojlanishida samarali ta'sir kuchiga ega bo'lib, ularning ma'naviy olamining boyishi, axloqiy mezonlarining shakllanishi hamda ijtimoiy mas'uliyatining ortishiga xizmat qiladi. Shuning uchun ham teatrni ta'lim-tarbiya jarayoniga integratsiya qilish, yoshlarni muntazam ravishda teatr madaniyati bilan tanishtirish ijtimoiy rivojlanishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoevning "Maqsadimiz har-bir insonning asosiy xuquq va erkinliklarini, salomatligi va farovonligini ta'minlaydigan adolatli global tizimni birgalikda yaratishdir"[3.4.], degan fikrlari asosida jamiyatning siyosiy, ijtimoiy modernizatsiya qilish bilan birga yoshlar manfaatlarini ham inobatga olish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mutafakkir Aflotun ta'kidlaydiki, "Men shuni aytib, tasdiqlayman hamki, qanday bo'lmasin biror ishda etuk bo'lishni istagan odam bunga taalluqli bo'lgan barcha narsada yoshligidan goh o'yin sifatida, gohida jiddiy mashq qilishi kerak. Masalan, yaxshi dehqon yoki binokor bo'lishni hohlagan odam bolalik o'yinlarida yo erga ishlov berish yohud o'yinchoq uylarni qurishi kerak. Murabbiy ularning har biriga haqiqiyisiga o'hshagan mo'jaz, kichkina asbob-uskuna berishi zarur"[6.30]ligini ta'kidlab o'tadi.

Yoshlarni barkamol shaxs qilib tarbiyalashda milliy qadriyatlar va urf-odatlardan foydalanish bugungi kunda ta'lim-tarbiya jarayoni oldida turgan eng dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Mamlakatimizda voyaga etib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama sog'lom va mustahkam ruhda tarbiyalash, ularning huquq va erkinliklarini ta'minlash, qonuniy manfaatlarini muhofaza etish davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi barchamizga ma'lum. Davlatimiz rahbarining tashabbusi va rahnamoligida yoshlar tarbiyasining ustuvor yo'nalishlari belgilab olindi va bu borada tub islohotlar amalga oshirildi.

Jamiyatning yangi rivojlanish bosqichida islohotlar yosh avlod manfaatlarini ta'minlashni kuchaytirishga qaratilgan huquqiy bazani yanada mustahkamlash, kadrlar tayyorlash darajasini yangi bosqichga ko'tarish, ta'lim muassasalarini bitirayotganlarning hayotda o'z o'rnini topib ketishi uchun keng imkoniyatlar yaratib berish, xotin-qizlar uchun yangi-yangi ish joylari tashkil etish kabi ko'plab aniq yo'nalishlarga qaratilgan. Zero, "yoshlarimiz o'rtasida sog'lom turmush tarzini mustahkamlash, ayniqsa, ularning qariyb 50 foizini tashkil etadigan qiz bolalarni hayotga tayyorlash, uyushmagan yoshlar bilan ishlash, oilaviy ajrimlar, o'smirlar orasida jinoyatchilik holatlarining oldini olish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda"[4.385.].

Yurtimizda yaratilgan bu betakror an'ana va marosimlar, milliy qadriyatlar va urf-odatlarini o'rganish hamma davrlarda ham olimlar oldiga qator muhim vazifalarni bajarish zaruratini qo'yganligini ta'kidlaydi. Jamiyatning ma'naviy rivojlanish jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarining sinergetikasi, ularning bir-birining rivojiga ta'siri, jamiyatdagi o'rni, muayyan

vazifalarini belgilash muhim amaliy epistemologik ahamiyati tahlil qilingan. Inson tafakkurining doimiy ravishda o'zgaruvchan va yangilikka moyilligi jamiyatda o'ziga xos ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni vujudga keltirib boradi. Bu jarayon, o'z navbatida, san'at madaniyatining xilma-xil ko'rinishlarini shakllantiradi, estetik voqelik haqidagi tasavvurlarni yangilaydi, jamiyatning o'z ichki qonuniyatlariga bog'liq ravishda ijtimoiy muhitning rivojlanish va o'zgarish jarayonlariga ta'sir etadi. Har bir shaxs san'at olamini rivojlanib borishi, xalq ma'naviy boyligining ommalashuv hamda idrok etilish darajasiga bog'liq bo'lishi va zarurligi ko'rsatib o'tilgan. Bu jarayonni hech qachon tekis va silliq kechmaganligi, u doimo spiralsimon harakat va rivojlanish bosqichlarini o'tab kelganligi e'tirof etish mumkin. Jamiyatda madaniy rivojlanish uzoq tarixiy taraqqiyot yo'liga ega.

Estetik tafakkurning turli shakllari tarixan shakllanib, ijtimoiy qatlamlar uchun turlicha xizmat qilib kelgan. San'at olamining shakllari va turlari jumladan, shaxs ma'naviy yuksalishi, asrlar osha ma'naviy qadriyatlarni to'plash va ko'paytirish bilan ajralib turadi. Ana shunday ma'naviy qadriyatlardan biri sifatida shaxs tafakkuri, ongi va dunyoqarashini boyishi jarayonida juda katta rol o'ynaydi. Shunday ekan, avvalo, teatr san'ati va madaniyatining o'zi nima ekanligini anglab etish, shu asnoda uning rivojlanish qonuniyatlari va tamoyillarini tadqiq etish zaruriyati tug'iladi. Jamiyatning teatr san'ati muayyan tarixiy sharoitda yaratilgan va idrok etilayotgan estetik qadriyatlar yig'indisidan iborat. Unga, birinchi navbatda, millat istiqomat qiladigan muhit tabiati, ijtimoiy-siyosiy tuzumdagi tizimlar faoliyatiga munosabat, yaratilayotgan barcha moddiy va ma'naviy qadriyatlarning estetik jihatlari, odamlar hayoti va faoliyatidagi adabiyot va san'at durdonalari kiradi.

Ijtimoiy himoyaga qaratilgan har qanday ezgu harakat qaysidir jihatdan yoshlar manfaatlarini ham ko'zlaydi. Yoshlarning voyaga etishi, ta'lim olishi, kasb-hunar o'rganishi, oyoqqa turib ketishi uchun doimiy ravishda davlat va jamiyat e'tibori va muhofazasi kerak. Yoshlar manfaatlariga qaratilgan ko'pdan-ko'p amaliy tadbirlarni kuchaytirish, yosh oilalarning jamiyatda tezroq o'z munosib o'rni va mavqeiga ega bo'lishiga keng yo'l ochadigan huquqiy asoslar yaratish zarur. Shuning bilan birga, "bugungi global sharoit, inson ongi va qalbi uchun kurash keskin tus olgan bir paytda mafkuraviy tarbiyaning zamonaviy ta'sirchan texnologiyalarini ishlab chiqish dolzarb vazifamizdir"[5.284.] deb aytilgan fikrlar muhim ahamiyatga egadir.

TAHLIL VA NATIJALAR

Estetik madaniyat tarkibida, albatta, jamiyatning badiiy salohiyat amallari juda katta rol o'ynaydi – deya ta'riflaydi. Shaxs estetik madaniyati esa muayyan jamiyat estetik madaniyatining o'ziga xos transformatsiyasi, individual milliy, ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-siyosiy va badiiy-estetik mayllardan tarkib topadi. Jamiyatda estetik madaniyatning rivojlanish qonuniyatlari ijtimoiy hayotdagi barcha sohalarni qamrab olgan holda, tevarak-atrofdagi manzaralarning takrorlanmas tarovatlarini, turli xil vaziyatlar asosida (obyektiv va subyektiv omillar natijasida) kelib chiqadigan estetik munosabatlarni, shaxs ideallari, inson hayot tarzi va mehnat faoliyatida zarur omil bo'lgan ijodkorlik qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi. Jamiyatda estetik madaniyatni yaratuvchisi va ijodkori shaxs ekan, u o'zining ongli estetik faoliyati negizida moddiy va ma'naviy estetik ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan zaruriy vositalarni yaratishga intiladi. Shu asnoda shaxs tafakkuri, voqelik haqidagi tasavvurlari, nafosat olami, ijtimoiy muhit to'g'risidagi qarashlari muayyan qonuniyatlar tizimida rivojlanib boradi. Jamiyatda shaxs estetik madaniyati turli xil narsa va hodisalar o'rtasidagi jarayonlarning o'zaro aloqadorligi asosida rivojlanadi.

Yangi O'zbekistonda uchinchi renessans poydevorini qurishda teatr san'atidagi istiqbolli vazifalar sifatida - bu mamlakatning madaniy, ijtimoiy, iqtisodiy va axloqiy rivojlanishining asosiy qismlaridan biri hisoblanadi deya ta'kidlash mumkin. Teatr san'ati, o'zining estetik, ma'naviy va tarbiyaviy ta'siri bilan jamiyatning o'zgarishlariga, yangilanishlariga va rivojlanishiga xizmat qiladigan kuchli vosita bo'lib xizmat qiladi.

MUHOKAMA

O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida, yosh kadrlarning faolligini yanada oshirish masalasi mehnat an'analari asosida mehnat resurslarini sog'lomlashtirish, mamlakat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi yangi texnologiyalarni joriy etish orqali fuqarolar mehnatini engillashtirish, aholi turmushini jahon andozalari va milliy an'analar asosida bosqichma-bosqich oshirib borishni talab etadi. Bular kishilarning kasbiy savodxonligini oshirishga qaratilgan ma'rifiy ishlardir. Xususan, to'liqsiz ish vaqti fenomenini tahlil etish, ushbu usul ayniqsa ayol-qizlar va yoshlar uchun qulayligi, ular oilaviy sharoitlaridan kelib chiqqan holda ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirok etishi uchun katta qulaylik yaratish mumkinligiga alohida e'tibor qaratish lozim. Ushbu sohada xunarmandchilik mehnat an'analari asosida faoliyat ko'rsatadigan korxonalar muhim ahamiyat kasb etadi.

ILMIY AXBOROT

Jamiyatda ijtimoiy jarayonlarni tahlil qilishda bilishning obekti sifatida jamiyat, uning predmeti esa inson hamda uning faoliyati, madaniyatini tadqiq etiladi. Gnoseologiyaning subekti o'zining aniq atraktor, manfaat va ehtiyojlarga qaratilgan, ijtimoiy guruhlariga tegishli individdir. Shunga ko'ra yoshlar ehtiyoj va manfaatlarini o'rganishda ijtimoiy hayotda qanday munosabatda bo'lishiga bog'liq. Har bir jamiyatda ijtimoiy hodisalarni bilish, anglash, munosabat bildirishda tafakkur, ilohiy va etik qonuniyatlar bo'lishi talab etiladi.

Kishilarning manfaatlarini va ehtiyojlarini qondirish maqsadida, ularning o'zaro birlashuvi va kishilar o'rtasidagi iqtisodiy, axloqiy, ma'naviy hamda boshqa ijtimoiy munosabatlari yig'indisidan tashkil topgan majmua[7.116.] jamiyat deb yuritiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yangi O'zbekistonning taraqqiyotida teatrlar rivojiga ham jiddiy e'tibor qaratilib, o'z o'rnida adiblar, dramaturglar, rejissyorlar, aktyorlar, umuman teatr san'ati fidoyilari zimmasiga sharafla bajarilishi lozim bo'lgan mas'uliyatli vazifalarni yuklamoqda. Shu tufayli bugungi kunda teatr san'atining ahamiyati nihoyatda yuksak va muhimdir. Chunki uning asosiy vazifasi mamlakatimiz fuqarolarini, ayniqsa yurtimiz kelajagi bo'lmish yosh avlodni har tomonlama kamol topgan, qat'iy iroda va e'tiqodga ega shaxslar qilib tarbiyalashdan iborat. Bu esa teatr san'atining hozirgi holati, undagi mavjud muammolar va ularning echimlarini aniqlash, soha kelajagiga daxldor masalalarni tadqiq etish mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi.

Bugungi kun o'zbek teatrida sahnalashtirilgan spektakllar g'oyaviy-badiiy jihatdan puxta, shaklan va mazmunan yaxlit bo'lishi barobarida sahna qonuniyatlari asosida yaratilishi va eng asosiysi tomoshabinning estetik didini oshirish, ma'naviy ozuqa berish va zavq ulashishga xizmat qilishi zarur.

Yangi O'zbekistonni yaratishda teatr san'atining o'rni nihoyatda muhim, chunki u nafaqat xalqni birlashtirish va milliy madaniyatni saqlab qolish, balki global miqyosda raqobatbardosh bo'lish imkoniyatlarini yaratadi. Teatr san'ati, ayniqsa, uchinchi renessansni shakllantirish va istiqbolli vazifalarni amalga oshirishda quydagilarga e'tibor qaratish lozimligi bayon qilingan. Masalan, "Milliy madaniyatni qayta tiklash va rivojlantirish", bunda teatr san'ati O'zbekistonning milliy identitetini saqlash va rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. Мирзиёевнинг «Yoshlar – kelajagimiz» Davlat dasturi tўғrisidaги ПФ-5466 сонли Фармони 27 июнь 2018 йил.
2. Мубашшир Аҳмад. Олим, одам ва олам. (Ҳикматлар гулдастаси) -Тошкент.: Qaqnus Mediya, 2019 йил.
3. Ш.М.Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 75-сессиясидаги нутқи. // Халқ сўзи. 2020 йил 24 сентябрь. № 202.
4. Мирзиёев Ш. М. Нияти улўғ халқнинг иши ҳам улўғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019 йил.
5. Қуронов М. Бизни бирлаштирган ғоя. –Тошкент: Ғофур Ғулом нашриёти, 2016 йил.
6. Афлотун. Қонунлар. – Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2002 йил.
7. Яхшиликков Ж. Я., Муҳаммадиев Н. Э. Миллий ғоя – тараққиёт стратегияси. “Монография”. -Тошкент.: “Фан”, 2017 йил.